

IJOBIY MUNOSABAT IFODALOVCHI MUROJAAT BIRLIKLARI**Ilimjonova Muhlisaxon Baxodirjon qizi***Chirchiq davlat pedagogika universiteti**O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sintaktik vositalardan biri bo‘lgan murojaat birliklari haqida fikr yuritiladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi ijobiy munosabat ifodalovchi murojaat birliklari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar. *Murojaat birligi, nutq, stilistik, ijobiy ma’no, adresat, kommunikatsiya, affiksoid.*

Til belgi ekan, har bir til unsuri ham belgi sifatida muayyan maqsadni ifodalashga yo‘naltiriladi. Kommunikativ maqsadning bayon qilinishida, jumladan, murojaat birliklari ham muloqot jarayonida muhim o‘rin egallaydi.

Murojaat birligi so‘zlovchi nutqi qaratilgan shaxs, jonli va jonsiz predmetni ifodalashiga ko‘ra kuchli stilistik vosita sanaladi. Murojaat birliklari so‘zlovchining tinglovchiga munosabatini ifodalab baho xarakteristikasi bo‘yog‘i (ijobiy, salbiy, neytral, ko‘tarinkilik, tantana kabilar)ga ega bo‘ladi.

Kishilar jamiyatda yashar ekan, tanish va notanish shaxslar bilan muloqotga kirishadi. Mazkur jarayonda axborot almashadi, mulohazalarini bayon qiladi. Shu tarzda o‘zini va boshqalarni, borliqni bilishga intiladi.

Murojaat birliklari nutqiy muloqot jarayonida, badiiy matnlarda keng ishlatilib salbiy yoki ijobiy baho munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Murojaat birligining baho ifodalash, his-tuyg‘ular bayon eta olish ko‘lamining kengligi yozuvchilarga badiiy asarlarda ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Muloqot jarayonida ijobiy munosabat ifodalovchi murojaat birliklarini Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida tadqiq etsak, bu fikrning asosli ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Asarda bek aka, ota, o‘g‘lim, bek, amak, qizim, otajon, taqsir, o‘rtoqlar kabi murojaat shakllari qo‘llangan. Romanda murojaat birligi sifatida affiksoidlardan ham foydalanilgan. Affiksoid deb asli leksik birlik bo‘lib, keyinchalik xuddi affiks kabi grammatik ma’no ifodalashga xizmat qilib, affiks kabi bir necha leksemalarga qo‘shilib kelish xususiyatiga ega bo‘lgan birlikka aytiladi. Masalan, bek, jon, oy, xon, toy kabi so‘zlar

alohida so‘z vazifasida ham, qo‘shimcha vazifasida ham qo‘llana oladi. Asarda faqat bek affiksoidini uchratishimiz mumkin.

Bek – 1. Turkiy xalqlarning ba’zilarida xonliklar davrida davlat arboblari, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo‘lgan shaxs. 2. Erkaklar ismining tarkibiy qismi. 3. (1-shaxs egalik shaklida) O‘z begi yoki xo‘jayiniga murojaatda yoki ular haqida gapirganda ishlatilgan so‘z.

Hasanali ustida bo‘lg‘an haligi gapdan keyin Rahmat so‘radi:

*-Toshkanddan nimalar keltirdingiz, **bek aka?***

Ushbu parchada bek aka birikmasi murojaat birligi vazifasida kelgan va bek so‘zi erkak ismining tarkibiy qismi ma’nosini ifodalagan. Rahmat Otabekka bek aka deb murojaat qilishi orqali munosabatlar yaqin ekanligi, suhbatdoshlar orasidagi iliqlik va samimiylilikni kuzatamiz.

Ota – 1. Farzandli, bola-chaqali er kishi (o‘z bolalariga nisbatan). 2. Yoshi katta kishilarga murojaat qilishda yoki ularni hurmatlash uchun ishlatiladi. 3. O‘g‘il bolani erkalatish uchun ishlatiladi. 4. El-yurtga boshchilik qiluvchi, yoshi yoki mansabi ulug‘ zot haqida.

O‘g‘il – 1. Er jinsidagi bola. 2. Farzandi tengi shaxsga nisbatan murojaat shakli.

Otabek mehmonlarni tanchaga o‘tquzib, fotihadan so‘ng Hasanali so‘radi:

*-Tuzukmisiz, **ota?***

-Xudoga shukur, -dedi Hasanali, -boyagidan biroz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan.

-Ba‘zi yumushlar buyursam...

*-Buyuringiz, **o‘g‘lim.***

Ma’lumki, murojaat birliklari dialoglarda keng qo‘llaniladi. Chunki suhbatdoshlar muloqot jarayonida bir-birlariga murojaat qilishlari zaruriy ehtiyojdir. Dialogda ikkita murojaat birligi qo‘llangan: ota, o‘g‘lim. Vaziyat bilan tanish kitobxon yaxshi anglaydiki, suhbatdoshlar ota-bola emas. Shunga qaramay, bir-birlariga yaqinlik, qarindoshlik ifodalovchi so‘zlar orqali muomala qilishmoqda. Hasdanali nutqidagi o‘g‘lim murojaat birligi hayrixohlik va yaqinlik ifodalasa, Otabek nutqidagi ota murojaat so‘zi hurmat va ehtirom ma’nosini ifodalab kelyapti.

O‘zbek tilida notanish adresatga murojaat qilinganda, ko‘proq amaki, tog‘a, xola, opa, uka, pochcha, yaxshi qiz, yigitcha kabi murojaat birliklari qo‘llanadi va ular shu

so‘zlarga mos keluvchi adresat katta yoshdagi notanish erkak, katta yoshdagi notanish ayol, o‘rta yoshdagi notanish ayol, yoshroq yigit, qiz presuppozitsiyasini, shuningdek, hurmat yoki kesatig kabi ijobiy yoki salbiy munosabatlar presuppozitsiyasini ifodalaydi. Masalan:

-Meni eslay olasizmi, **bek?**

Otabek diqqat va e’tibor bilan qutidorni kuzatib javob berdi:

-Yo‘q, **amak.**

Bu parchada bek va amak murojaat birliklari qo‘llangan bo‘lib, bek so‘zi tanish adresatni amaki so‘zi esa notanish adresatni ifodalab kelgan. Abdulla Qodiriy ushbu asarda amaki so‘zini egalik qo‘shimchasisiz amak shaklida yozadi. Asar qahramoni Otabek Mirzakarim qutidorga amak deb murojaat qilishi orqali yaqinlik, hurmat kabi ma’nolar yuzaga chiqqan.

Qiz – 1. Balog‘at yoshiga yetmagan ayol. 2. Xotin jinsiga mansub farzand (o‘z otanasiga nisbatan). 3. Qizlarga yoki yosh juvonlarga nisbatan murojaatda ishlatilib, hurmat, erkalash, o‘zini yaqin olish singari ma’nolarni ifodalaydi.

Qutidor qizini kuzatdi:

-Tuzikmisan, **qizim?**

-Yo‘q, **otajon,** boshim hamon og‘rib turadir.

Ushbu parchada murojaat birliklari tanish adresatga nisbatan qo‘llanilgan. Ota va qiz o‘rtasidagi bu suhbat orqali ijobiy munosabatni sezish mumkin. Qizim murojaat birligidagi –im egalik qo‘shimchasi erkalash ma’nosini ifodalasa, otajon murojaat birligidagi –jon qo‘shimchasi ijobiy ma’nolarni bo‘rttirishga yordam bergan.

Taqsir - amaldorlarga, boy va mullalarga hurmat bilan murojaat shakli.

Asarda yuksak martabali kishilarga nisbatan taqsir so‘zi ko‘p qo‘llangan murojaat shakli bo‘lib, quyi tabaqa vakillari o‘zlaridan yuqori deb bilgan tabaqa vakillariga shu yo‘sinda murojaat etadi va mullalarga hurmat bilan murojaat qilishni ifodalaydi:

Kelguchi ko‘p tutulib tusi o‘ngg‘an gilam ustidan yurib borib, qo‘rboshi qarshisig‘a tavoze bilan o‘lturdi. Qo‘rboshi qo‘lidag‘i yozuvni buklab qo‘ynig‘a tiqdi-da, kelguchini yer ostidan kuzatdi:

-Qayerliksan?

-**Taqsir**...shu yerlik, marg‘ilonlik.

-Oting nima?

-**Taqsir**...Homid.

-Nima kasb qilasan?

-Ustakorlik.

-Yaxshi, arzingni gapir?

“O‘tkan kunlar” romanida XIX asr voqealari tasvirlangan bo‘lib, bu davrda ham yuqori tabaqa vakillariga murojaat qilishda taqsir so‘zi faol qo‘llanilgan. Kishilarning muomala madaniyatida murojaat shakllari muhim o‘rin egallar ekan, unda kommunikantlarning mavqeyi ham aks etadi.

Asar qahramonlari ismlari tarkibidagi kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari erkalash, sevish, hurmat, mehribonlik kabi qator ijobiy ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

-bonu (1.Yuqori tabaqalar, zodagonlar avlodiga mansub ayollar unvoni; 2.Hurmat yuzasidan ayollar ismiga qo‘shib ishlatiladigan so‘z.)

O‘zbek oyim Kumushka xo‘mrayib oldi:

-Yo‘q-yo‘q, **Oftobbonu**, - dedi, - sizlarga javob bersam-da, Kumushka yo‘q.

-bibi (1.Onaning yoki otaning onasi; 2. Hurmat yuzasidan, odatda kekxa ayollar ismiga qo‘shib ishlatiladi.)

Kumushbibi, siz uncha xayol surmang, kulib o‘lturing. Baribir ertaga joysiz chekkan qayg‘ingizdan o‘kinarsiz!

Asarda –bibi affiksi kekxa ayollar ismiga emas, balki yosh qizlar ismiga qo‘shilgan.

-nisa (erkalash, hurmat ma’nosi uchun ishlatiladi)

-**Zaynabnisa**, -dedi, -Zaynab qaradi, - bu kishini tashqarig‘a chiqib yotishg‘a qo‘ymang, tuzikmi?

Ko‘rinadiki, murojaat birliklari badiiy asar nutqida stilistik vosita sifatida keng ishlatiladi. Ular yordamida so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro munosabati, personajlarning ruhiy holati, kechinmalari ifodalanadi. Muloqot ishtirokchilarining baho munosabatlari ham murojaat birliklardan anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matyoqubova D. Undalmalar ruhiyatni ifodalovchi vosita sifatida. VOLUME 1, ISSUE 1, 2022.
2. Omonturdiyev A. O‘zbek nutqining evfemik asoslari. –T., 2000.
3. Shoqosimov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. –T., 1983.